

MEN DINIY EKSTREMIZM VA TERRORIZMNI QANDAY TUSHUNAMAN**Faridova Dinora Ruslanovna**

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali 2-kurs talabasi.

Abdullayeva Annabibi Remezan qizi

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali 2-kurs talabasi.

Pardayev Musobek O`ktamovich

Samarqand davlat tibbiyot universiteti 2-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15257635>

Annotatsiya. Mazkur maqolada diniy ekstremizm va terrorizm tushunchalari, ularning jamiyatga salbiy ta'siri va xavflari yoritilgan. Ekstremistik g'oyalar dinni noto'g'ri talqin qilish orqali qanday qilib jamiyatda zo'ravonlik va adovat keltirib chiqarishi ko'rsatib berilgan.

Shuningdek, maqolada terrorizmning keng ijtimoiy asoratlari, diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning samarali usullari, xususan, ta'lim va ma'rifatning roli tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: diniy ekstremizm, terrorizm, narkobiznes, separatizm, demokratiya, ma'naviyat-marifat, e'tiqod.

КАК Я ПОНИМАЮ РЕЛИГИОЗНЫЙ ЭКСТРЕМИЗМ И ТЕРРОРИЗМ?

Аннотация. В данной статье описаны понятия религиозного экстремизма и терроризма, их негативное влияние и опасность для общества. Он показывает, как экстремистские идеи могут вызвать насилие и враждебность в обществе из-за неправильного толкования религии. В статье также анализируются широкие социальные последствия терроризма, религиозного экстремизма и эффективные методы борьбы с терроризмом, в частности, роль образования и просвещения.

Ключевые слова: религиозный экстремизм, терроризм, наркобизнес, сепаратизм, демократия, духовность, вера.

HOW DO I UNDERSTAND RELIGIOUS EXTREMISM AND TERRORISM?

Abstract. This article describes the concepts of religious extremism and terrorism, their negative impact and dangers on society. It shows how extremist ideas can create violence and hostility in society through misinterpretation of religion. The article also analyzes the broad social complications of terrorism, religious extremism and effective methods of combating terrorism, in particular, the role of education and enlightenment.

Keywords: religious extremism, terrorism, drug business, separatism, democracy, spirituality, faith.

Kirish

Zamonaviy dunyoda tinchlik va xavfsizlikni saqlash global jamiyatlar oldidagi eng muhim vazifalardan biri sanaladi. Afsuski, bu jarayonni buzadigan va insoniyatni tashvishga soladigan eng jiddiy tahdidlardan biri diniy ekstremizm va terrorizm hisoblanadi. Ushbu fenomenlar nafaqat davlatlar va xalqlar, balki butun insoniyatning taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Men bu masalani chuqur anglagan holda, diniy ekstremizm va terrorizmni qanday tushunishim haqida fikr yuritaman.

Diniy Ekstremizmning Mohiyati

Ekstremizm – siyosatda va mafkurada ashaddiy, favqulodda harakat va qarashlarga asoslanib faoliyat yuritish. Ekstremizmning siyosiy va diniy ko'rinishlari yaqqol ajralib turadi.

Zo'rlik yoki zo'rlik ishlatishga davat qilish. Siyosiy ekstremizm namoyandalari o'zlarining g'arazli maqsadiga erishish uchun kuch ishlatish usullaridan foydalanib, mavjud siyosiy tuzilmalarning barqaror faoliyat yuritishini buzish va yo'qotishga harakat qiladi. Bu yo'lda ekstremistlar va ekstremistik tashkilotlar „demokratiya“ niqobi ostida balandparvoz shiorlar, chaqiriqlar bilan chiqib, terrorchilik va partizanlik harakatlarini qo'llab quvvatlaydilar, qonunga rioya etmaslik, ish tashlashlar, tartibsizliklar chiqarishga urinadilar, odamlarni gijgijlaydilar, terror qilish usulidan foydalanadilar Ekstremistik tashkilotlarning rahbarlari har qanday murosa va kelishuvni rad etadilar. O'ziga tobelarni o'z buyruq va ko'rsatmalarini ko'rko'rona bajarishga majbur etadilar. Siyosiy ekstremizmning millatchilik ko'rinishi turli millat va etnik guruhlar huquqini inkor etishda namoyon bo'ladi. Millatchi ekstremistlar faoliyati separatizm bilan bog'liq bo'lib, ko'p millatli davlatlarni yo'qotish, tub millat hukmronligini o'rnatishga qaratiladi. Bunday ekstremizm millatlararo munosabatlarning keskinlashuvi va xalqlar o'rtasida mojarolar chiqishiga olib keladi.

Diniy ekstremizm bu diniy e'tiqodlarni noto'g'ri talqin qilish orqali jamiyatga zarar yetkazishdir. Ekstremistlar o'z maqsadlariga erishish uchun dinni zo'ravonlikka asoslangan tarzda tushuntirib, insonlar ongida noto'g'ri tasavvur shakllantiradi. Dinning tinchlik va mehr-oqibat tamoyillarini chetga surib, undagi qoidalarni o'zlarining ekstremistik maqsadlariga xizmat qiladigan vositaga aylantirish, bu jarayonning asosiy xususiyatlaridan biridir.

Masalan, ko'pgina diniy ekstremistik guruhlar o'zlariga ma'qul kelmagan diniy yoki dunyoviy qarashlarga ega insonlarni jazolash yoki ularni majburiy tartibda o'z dinlariga kiritishni maqsad qiladilar.

Bunda ular nafaqat diniy qadriyatlarni buzadi, balki inson huquqlariga qarshi chiqadilar.

Diniy ekstremizm jamiyatda adovat va nifoq urug'ini sohib, tinch-totuv yashashga xavf soladi.

Terrorizmning Ijtimoiy Asoratlari

Terrorizm — bu diniy ekstremizmning eng dahshatli va zararli shakllaridan biridir. U jinoyat orqali diniy, siyosiy yoki ijtimoiy maqsadlarga erishishni koʻzlaydi. Terrorizm insoniyat tarixida koʻplab begunoh odamlar hayotini olib ketdi, jamiyatlarda qoʻrquv va notinchlik yaratdi. Terrorizm yakka tartibdagi va guruhli terrorizm toifalariga boʻlinadi.

Siyosatshunoslikda davlat terrorizmi tushunchasi ham qoʻllanadi. Terrorizm oʻrta asrlardan boshlab barcha mintaqa va mamlakatlarda uchrab turgan. Lekin oʻtgan asrning oxirlaridan uning yangi koʻrinishlari vujudga keldi (chet el davlatlari va hukumatlari rahbarlarini, ularning diplomatik vakillarini oʻldirish yoki oʻgʻirlash, elchixonalar, missiyalar, xalqaro tashkilotlarning binolarini portlatish, aeroportlar va vokzallarda portlashlar sodir etish, havo kemalarini olib qochish, odamlarni garovga olish va hokazo).

Xalqaro terrorizm keng tarqalib, terrorizm oshkora siyosiy tus ola boshladi. Terrorchilar ayrim mamlakatlar hukumati va unga yaqin tuzilmalardan madad oladigan hollar yuzaga keldi.

Ular tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasi ortdi.

Terrorchilar qoʻliga yadroviy, kimyoviy, biologik qurol tushib qolishi xavfi kuchaydi, electron terrorchilik paydo boʻldi. Koʻp hollarda terrorizm diniy ekstremizm, narkobiznes, separatizm bilan bogʻliqligi, chatishib ketishi kuzatila boshlandi.

Terrorizmning ijtimoiy asorati keng koʻlamlidir. U nafaqat bevosita qurbonlarga zarar keltiradi, balki jamiyatning rivojlanishiga, iqtisodiy holatiga va insonlar oʻrtasidagi oʻzaro ishonchga ham salbiy taʼsir qiladi.


Mamlakatlarning siyosiy tizimlari va iqtisodiy holati, inson huquqlari va tinchlikparvarlik koʻrsatkichlari ham bundan jabr koʻradi.





Terrorizmga qarshi kurashning huquqiy mexanizmlarini shakllantirish va zamonaviy tahdidlarni oldini olish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-sentyabrdagi qarori bilan Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha idoralararo komissiya tashkil etildi. O'zbekiston hukumati terrorizmga qarshi kurash to'g'risidagi qonunlarni takomillashtirish bilan cheklanib qolmay, milliy strategiya va harakatlar rejasi asosida muammoni tizimli bartaraf etishga harakat qilmoqda. 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi muvofiq, shu bilan birga, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish milliy tizimini rivojlantirish strategiyasi tasdiqlandi. Shuningdek, «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi»dagi ustuvor yo'nalishlar negizida jumladan, aholi, ayniqsa yosh avlodda terrorizm va ekstremizm mafkurasiga qarshi qat'iy va barqaror immunitetni shakllantirish, xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ekstremizm, terrorizm va ularni moliyalashtirishga qarshi kurash sohasida axborot hamda tajriba almashish kabi muhim masalalar doirasida vazifalar belgilandi.





O'zbekiston va Diniy Ekstremizm

O'zbekiston diniy ekstremizmga qarshi kurashda o'zining aniq yondashuvlariga ega.

Mamlakatda diniy ekstremizmning oldini olish uchun ta'lim va ma'rifatni kuchaytirish, yoshlarni to'g'ri diniy bilim bilan ta'minlashga alohida e'tibor berilmoqda. O'zbekiston hukumati diniy e'tiqodlarning tinch va izchil rivojlanishi uchun sharoit yaratmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston xalqaro hamkorlikni rivojlantirish orqali terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashda faol ishtirok etmoqda. Turli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda diniy ekstremizmga qarshi dasturlar amalga oshirilmoqda. Bu dasturlar ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va muammolarni hal qilishga qaratilgan.

Ekstremizm va Terrorizmga Qarshi Kurashda Yondashuvlar

Ma'lumki, terrorizm va ekstremizm balolari nafaqat bugungi kunda, balki u mavjud bo'lgan barcha zamon va makonlarda insoniyat va jamiyat uchun tom ma'nodagi fojia bo'lib kelgan. Bugungi notinchliklar hukm surayotgan mintaqalarning deyarli barchasidagi barqaror vaziyatni izdan chiqaruvchi omillari ham mazkur ikki narsadir. Bu atamalarga ko'plab ta'riflar berilgan bo'lsa-da, ularning asl mazmun-mohiyati notinchlik va beqarorlikni keltirib chiqarish, insonlar qalbiga qo'rquv va vahima solish, ularni jismonan yo'q qilish, zo'ravonlik yo'li bilan hokimiyatga intilish kabi salbiy unsurlardan iboratdir. Ekstremizm va terrorizm birgalikda, bir maslakka xizmat qiluvchi ikki unsur deb qaraladigan bo'lsa, ekstremizm ko'proq g'oyaviy va nazariy, terrorizm esa ko'proq harakat jihatlariga mos keladi.

Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning eng samarali yo'llaridan biri — bu ta'lim va ma'rifatdir. Insonlar o'z dinini to'g'ri tushunishi, unga hurmat bilan munosabatda bo'lishi va boshqa e'tiqodlarga sabr-toqat ko'rsatishi zarur. Diniy bilimlarning noto'g'ri tarqatilishi va ekstremistlar tomonidan manipulyatsiya qilinishi oldini olish uchun davlat va jamiyat tomonidan aniq choralar ko'rilishi kerak.

Bundan tashqari, dinning tinchliksevar mohiyatini targ'ib qilish ham muhimdir. Turli dinlar va e'tiqodlar bir-birlarini to'ldirishi, insoniyatni birdamlikka, tinchlikka yetaklashi mumkin. Shuningdek, xalqaro hamkorlik va davlatlararo aloqalar bu kurashda muhim rol o'ynaydi. Xalqaro terrorizmga qarshi kurashda mamlakatlar birlashishi va global miqyosda harakat qilishlari zarur.

Xulosa

Diniy ekstremizm va terrorizm — zamonamizning eng katta xavf-xatarlaridan biridir.

Ular jamiyatni zaiflashtiradi, xalqaro hamkorlikka putur yetkazadi va tinchlik uchun jiddiy tahdid tug'diradi. Men bu tahdidlarni to'g'ri tushungan holda, jamiyatda diniy ma'rifatni kengaytirish, odamlarni ekstremistik g'oyalar ta'siridan himoya qilish va har bir insonni tinchlikka chorlashga ishonaman. Faqat shu yo'l bilangina biz global xavfsizlik va farovonlikka erishishimiz mumkin. Shu o'rinda birinchi Prezidentimiz I.A. Karimovning quyidagi so'zlarini tilga olsak: "Barchamizga ayon bo'lishi kerakki, qayerdagi beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o'zibo'larchikkka tashlab qo'yilsa, o'sha yerda ma'naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha, qayerda hushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo'lsa, o'sha yerda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi". Bu so'zlarni ichida katta ma'no yotadi, biz-yoshlar har doim hushyor, sergak, kuchli iroda va bilimimiz bilan bu jaholatni oldini olishga va Ona-Vatanimiz tinchligiga xavf solayotgan bu tahdidlarga qarshi kurashmog'imiz kerak. Bu jaholatga qarshi faqat jaholat bilan emas, balki ezgulik tarafdori bo'lgan mangu, yorug', nurli-kuchli bilim va sog'lom tafakkurimiz bilan kurashishimiz zarur.

Tavsiyalar

1. Diniy bilimlarni to'g'ri va keng qamrovda yetkazish.
2. Yoshlar o'rtasida diniy ekstremizmning oldini olishga qaratilgan targ'ibot ishlarini kuchaytirish.
3. Global va milliy darajada hamkorlikni kuchaytirish.
4. Tinchlikparvar diniy yetakchilar va olimlarning targ'ibotlarini qo'llab-quvvatlash.

REFERENCES

1. Karimov, I. A. "Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashda ta'limning roli." Toshkent, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017.
2. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. / Mualliflar jamoasi. – Toshkent: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013. – B. 246
3. YUNESKO hisobotlari: "Ta'lim va tinchlikparvarlikni targ'ib qilish." Parij, 2021.
4. O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik qo'mitasi materiallari, 2023.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Xalqaro_terrorizm
7. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Terrorizm>
8. <https://kknews.uz/oz/112065.html>
9. https://uz.wikipedia.org/wiki/Diniy_ekstremizm
10. <https://sammuslim.uz/oz/articles/actual/terrorizm-haqida-nima-bilamiz>
11. <http://www.muslim.uz> – O'zbekiston musulmonlari idorasi veb-sayti.